

# ILM-FAN XABARNOMASI

VOLUME 1, ISSUE 1

## O'ZBEK VA INGLIZ XALQ MAQOLLARIDA ONANING BOQIY SIYMOSI

Gafurova Nozimaxon Ikromovna

PhD, Farg'onan davlat universiteti

Xolmatova Shahzoda Kamoliddin qizi

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi.

**Annotatsiya:** O'zbek va Ingliz xalqlari, ularning o'zining she'riyati va tafakkuri bilan ajralib turib, onaning boqiy siymosini ifodalangan maqollarda ajralib o'rghanishadi. Bu maqollar, har bir xalqning hayot tarzini o'rghanishda va tarbiyalashda muhim ahamiyat aks ettiradi.

**Kalit so`zlar:** xalq og'zaki ijodi, folklorshunoslik, madaniyati va milliy qadriyatlar.

**Kirish.** Har bir millat va elatning o'zligini, tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlarini ifodalovchi omillardan biri xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida sayqallanib, xalq orasida aytilib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ma'naviy meroslardan biridir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlaridan biri bu maqoldir. Maqol folklorshunoslikda o'rghanilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifati og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona odob-axloq qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqningarlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Har bir halqning og'zaki yoki o'zma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elash saqlanib kelayotgan asotirafsonalar, uzoq tarix qa'ridagi ibtidoiy tasavvur va

# ILM-FAN XABARNOMASI

VOLUME 1, ISSUE 1

tushunchalar, asr-asrlar davomidagi kuzatishlardan xosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i-insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Ingliz va o‘zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. O‘tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O‘zbek Maqollarida Onaning Boqiy Siymosi: O‘zbek xalq maqollari ahamiyatiga katta e’tibor qaratadi. Misol uchun, "Onaning yuzi yo‘q, bo‘yi mamlakatni chog‘latibdi" degan o‘zbek maqolasi, onaning munosabatlari va xalqaro aloqalarini aks ettiradi. Bu maqolar orqali o‘zbeklar, xalqaro aloqalar yaxshi bo‘lishi, oilaviy aloqalarni qadrlash va xalqaro mehnatni o‘rganishgan.

Ingliz Maqollarida Onaning Boqiy Siymosi: Ingliz xalq maqollari ham o‘zlarining hayoti va tabiiy resurslariga e’tibor qaratadi. "Waste not, want not" deyishi orqali inglizlar, nafaqat o‘z resurslarini samarali ishlatishni, balki hech narsaga boqmayotgan baho bilan muvaffaqiyatga erishishni ham ifodalaydilar. Onaning yordamidan foydalanish, savdogarlik va samarali ishlash maqsadlarini aks ettiruvchi maqolalar ingliz xalqining xususiyatlarini ifodalaydi. O‘zbek va Ingliz xalq maqollari orqali ko‘p muhimi yondashuvlar mavjud. Onaning boqiy siymosi o‘zbeklarda oila, madaniyat va inson munosabatlari bo‘yicha umumiyligini qonunlarga aylanadi. Bu umumiyligini paremiologlar turlicha asoslar ekanlar: bir guruh olimlar maqollardagi o‘xshashlikni etnik kelib chiqish va qarindoshligi bilan asoslasa, boshqa olimlar yangi maishiy va ma’daniy aloqalarning kirib kelishi va qabul qilinishida deydilar, uchunchi guruh olimlari esa tarixiy rivojlanish pog‘onalari natijasi va g‘oyalar uyg‘unligida deb asoslaydilar. “Universaliya” atamasi lotincha “universalis” so‘zidan olingan bo‘lib, “umumiyligi”, degan ma’nolarni anglatadi va u deyarli barcha tillardagi xususiyatlarni qamrab oladi. Universaliyalar ikki ko‘rinishda bo‘ladi: deduktiv universaliyalar –

# ILM-FAN XABARNOMASI

VOLUME 1, ISSUE 1

shunday til xususiyatlariki, ular barcha tillarda uchraydi va aniq ifodalanadi. Bularga asosan gaplarning har xil strukturaviy turlarining ishlatalishi kiradi; induktiv universiyalar esa deyarli barcha mashhur tillarda mavjud. Ingлизlar esa, onaning boqiy siyomosini samarali ish faoliyatlariga o‘zlashtirish, o‘z resurslarini hamkorlik qilish va ta’lim olishda ham bajarishadi. Shu bilan birga, maqollar o‘zbek va ingliz xalqlarining turmush, do‘stlik va mehnat aloqalari ustida o‘zaro tajribani ko‘rsatadi. Maqollarni chuqurroq tahlil etish va ularning turli tillardagi milliy-ma’daniy hamda umumbashariy qadriyatlarini aks etishi orqali o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb muammosi bo‘lib kelmoqda. Qiyoslab o‘rganadigan bo‘lsak, dunyodagi barcha tillar o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin va aynan shu fenomen turli tillarni bir-biridan ajratadi. Lekin shu narsa ma’lumki, til o‘rganuvchilar o‘ziga begona bo‘lgan tilni ona tili va shu til o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik asosida o‘zlashtiradi. Bu tillar ma’lum bir kategoriylar ostida birlashadi. Bu kategoriyalarda grammatik kategoriylar, leksik-semantik kategoriylar, funksiyanal kategoriyalarga o‘xshagan lisoniy belgilar kiradi. Demak maqollarning universal va milliy xususiyatlari egaligi haqida ko‘p tadqiqotlar olib borilgan. Universal xususiyatlar maqollarning tuzilishida, bir ma’noviylik va ko‘p ma’noviylikligida hamda mavzularida namoyon bo‘lsa, buning sababi tarixiy rivojlanish, xalqaro aloqalarning kuchayishi va umumbashariy qadryatlarning o‘sishi hisoblanadi. Milliy xususiyatlar – milliy fe’l-atvor, milliy ruh aksi bo‘lib, muayyan bir etnosga tegishli xususiyatlardir. Muayyan bir etnosning yashash joyi, tarixi va milliyligi kabi zaruriy qirralarini bilmasdan turib, uning maqollarini mag‘zini, ma’nosini tushunish mutlaqo mumkin emas. Shuni aytib o‘tish kerakki, ko‘plab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham ma’no jihatdan yoki umumiylar bajarayotgan funksiyalaridan o‘xshashlik topsa bo‘ladi. O‘zbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi. Masalan, First think, then speak maqolini o‘zbek tilidagi muqobil varianti Avval o‘yla - keyin

# ILM-FAN XABARNOMASI

VOLUME 1, ISSUE 1

so‘yla maqoliga to‘g‘ri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil ma’noga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin. Shu bilan birga, ma’lum bir tildan ikkinchi tilga berilgan o‘girishlarda maqollarning aynan o‘xshashini topish qiyin bo‘ladi. SHunda izohlarga yoki ikkinchi bir adekvat variantga murojaat qilinadi. O‘zbek tilidagi maqollarning ingliz tilida yoki ingliz tilidagi maqollarning o‘zbek tilidagi muqobil variantini topish ancha mushkul, bu borada maqollarga o‘rni kelganda izoh berib o‘tish tarjimaga putur etkazmaydi balki uni to‘ldiradi va boyitadi. Maqollarda ifodlangan yagona hukm har bir tinglovchida har xil kechinma yo fikr uyg’otishi tabiiy. Lekin baribir barcha bir xil xulosaga keladi. Maqollarda mantiq kuchi baland, fikr ishonarli va bahslashishga o’rin qoldirilmagan. Shu sababli ulardan nutqning istalgan maqsadda foydalanish mumkin. Shunga qaramay, maqollar, odatda, jiddiy tusda aytiladi va tinglanadi. Lekin ba’zi hollarda kinoya, piching, istehzo, zaharxanda ma’nolarida ham ishlatalishi mumkin. Maqol hamma xalqlar og’zaki ijodida uchraydigan janrdir. Har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida kelgusi avlodga qoldiradi. Tarixdan ma’lumki har bir xalq hayotida juda ko’p o‘xshashlik bor, shuning uchun ko’p xalqlarning maqollar o‘xshashdir. Ijtimoiy hayotning deyarli hamma sohasi xalq maqollarida aks etadi.

**Xulosa.** Xalq maqollari, o‘zbek va ingliz xalqlarining onaning boqiy siymosini aks ettirgan qimmatli va o‘rgatuvchi adabiyotlardir. Bu maqollar orqali har bir xalqning tarbiyasini, tabiatga boqmayotgan boqiy siymosini, mehnatni, do’stlikni va boshqa muhim maqsadlarni o‘rganganini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun, bu maqollardan o‘rganchi, tarbiyalovchi va mustaqil o‘zlashtiruvchi foydalanishga har qanday kishi ehtiyojni sezadi.

## Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati

1. Кухарева Е. Б. Типологически-универсальное и национальноспецифическое в арабских пословицах и поговорках. Ч.2.- М.: РУДН,2003

# ILM-FAN XABARNOMASI

VOLUME 1, ISSUE 1

2. Axmedova.U.K. Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014
3. Shermamatova, S., & Nazirova, Z. (2022, April). SCIENTIFIC ANALYSIS OF LEXICOGRAPHY IN UZBEK LANGUAGE. In International Virtual Conference on Language and Literature Proceeding (Vol. 1, No. 2).
4. Shermamatova, S., & Tursunova, M. (2022). THE WORK CURRENTLY BEING DONE TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION IS THEIR EFFECTIVENESS.
5. Ingliz va o'zbek maqollari haqida nazariy qarashlar. Raxmatullayeva S.J.77-bet